

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI (TDT)**  
**TURK TILI QURUMI (TDK)**

**CHORLOV**

**ARDOQLI BILIM KISHILARI!**

Sizni “Butunjahon turkiy tillar oilasi kuni”ga bag‘ishlab 2026-yil 15-16- dekabr kunlari Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida o‘tkaziladigan **“Turkiy yozma meros: sivilizatsiyalararo muloqot va raqamli kelajak”** mavzuidagi uluslaro ilmiy yig‘inga chorlaymiz.

Yig‘inning bosh maqsadi dunyo qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan turkiy yozma yodgorliklarni tarix, filologiya, matnshunoslik yo‘nalishlarida o‘rganish, ushbu sohalarida raqamlashtirishni kuchaytirish, yasamaong tizimidan unumli foydalanish, yozma yodgorliklarda qo‘llangan so‘z boyligining elektron korpuslarini yaratish, turkiy xalqlar yozma merosini dunyo ilmida targ‘ib qilishdan iborat.

**Ilmiy yig‘in kengashlari:**

**I. Turkiy yozma yodgorliklarni qiyosiy-tarixiy o‘rganish:** *Qadgi turkiy bitiglarning tili, uslubi va poetikasi.*

**II. Manbashunoslik va matnshunoslik masalalari:** *Qo‘lyozmalar va epigrafik yodgorliklarni tanqidiy matnini tayyorlash va paleografik tahlil muammolari.*

**III. Kompyuter tilshunosligi va elektron korpuslar:** *Turkiy tillarning milliy va tarixiy elektron korpuslarini yaratish tajribasi.*

**IV. Raqamlashtirish va innovatsiyalar:** *Yasamaong (AI) va OCR texnologiyalarini qadimiy turkiy matnlarni deshifrovka qilish va restavratsiya qilishdagi tatbiqi.*

**V. Muzeylashtirish va global integratsiya:** *Turkiy yozma merosni saqlashda xalqaro kutubxonalararo tarmoqlarni yaratish va madaniy turizmni rivojlantirish.*

**Yig‘inda ilmiy ma’ruza bilan qatnashish:**

**Anjuman shakli:** Aralash (jonli va ZOOM platformasi orqali).

**Anjuman tillari:** o‘zbek, turk, ingliz, rus.

**Maqola yuborishning so‘nggi kuni:** 2026- yil 15- noyabr.

**Maqolalar yuboriladigan elektron pochta:** mangu8bitig@gmail.com

**Bog‘lanish telefoni** (Telegram, WhatsApp): +998909658656

**Ilmiy maqolalarni rasmiylashtirish:**

Maqola matni akademik andozalarda, chuqur tahliliy va ilmiy asoslangan bo‘lmog‘i kerak:

**Matn bishimi:** Microsoft Word (shrift: *Times New Roman*, o‘lchami: 14 pt, qatorlar oralig‘i: 1.5.

**Ko‘lami:** 8-10 bet.

**Maqola tuzilishi:** Birinchi qatorda o‘rtada maqola mavzusi (bosh harflar bilan, quyuq rangda).

Keyingi qatorda o‘ng tomonda maqola egasining ismi-sharifi, ilmiy darajasi, unvoni, ish joyi va e-mail manzili ko‘rsatiladi.

Boshlanishida o‘zbek va ingliz tillarida 130-140 sozli maqolaning qisqacha mazmuni (Abstract) hamda tayanch tushunchalar beriladi.

Foydalanilgan manbalar va ilmiy asarlar ro‘yxati maqola oxirida keltiriladi. Matn ichida iqtiboslar burchakli qavsda [1, 15-b.] beriladi.

**Eslatma:**

Ilmiy talablarga javob bermaydigan maqolalar qabul qilinmaydi.

Anjuman materiallari alohida to‘plam hoida (Google Scholar va CrossRef bazalarida indekslanadigan raqamli DOI ID bilan) nashr etiladi.

**Tashkiliy qo‘mita manzili:** Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20- uy.